Mustaqilligimizning 31 yilligi munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimiz taqdirlandi

Davlatimiz Rahbarining “O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining o’ttiz bir yilligi munosabati bilan fan, ta’lim, sog’liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat, san’at sohalari va ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to’g’risida”gi Farmoniga muvofiq bir guruh vatandoshlarimiz mukofotlandi. Ular orasida Fanlar akademiyasi xodimlari ham bor.

“O’zbekiston Respublikasi fan arbobi” faxriy unvoni bilan

Egamberdiyev Shuxrat Abdumannapovich - O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Astronomiya instituti direktori.

“O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni bilan

Filanovich Margarita Ivanovna - O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Milliy arxeologiya markazi yetakchi ilmiy xodimi

“O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan sog’liqni saqlash xodimi” faxriy unvoni bilan

Aripova Tamaraxon O’ktamovna - O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Immunologiya va inson genomikasi instituti direktori.

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Abdullaev Fatxulla Xabibullayevich - O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Fizika-texnika instituti bosh ilmiy xodimi.

“Shuhrat” medali bilan

Eshonova Salimaxon Nishonbek qizi - O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti bo’lim boshlig’i.

Taqdirlanganlarni davlatimizning yuksak mukofotlari bilan qutlaymiz hamda kelgusidagi faoliyatlarida muvafaqqiyatlar tilaymiz.